



ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISH USULLARI

Tojiboyeva Manzura Ozotboyevna

Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani

4-umumta'l'm maktabining

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'l'm tizimida ona tili darslari orqali o'quvchilarning faolligini oshirishning ilmiy-nazariy xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Ta'l'm tizimi, ona tili va adabiyot, metodika, pedagog, grammatika.

Til o'qitishda asosiy maqsad o'quvchilarda nutqiy ko`nikmalarni hosil qilish ekan, bizning fikrimizcha, darslikda sof grammatik mashqlar qatorida fikrni to`g`ri ifodalash yo`lyo`riqlarini o`rgatuvchi nutqiy topshiriqlardan iborat mashqlar ko`proq bo`lishi kerak. Masalan, buyruq maylidagi fe'llarni nutqda qo'llashni o`rgatishda "O'qituvchingiz darsda qandat buyruq va topshiriqlar berishi haqida gapirib bering" degan topshiriqli mashq berishi mumkin. Yoki fe'lning majhul nisbati ustida ishlashda "Shanbalik natijasida bajarilgan ishlarni birma-bir aytib bering" kabi topshiriqli mashqni bajargan o'quvchilar o`rganilayotgan materialning hayotda zarurligini his qiladilar va bu fe'l shakllarini o`z nutqlarida qo'llashga odatlanadilar. Xuddi shuningdek, hozirgi-kelasi zamon fe'llarni tuslash, ya`ni shaxs-son qo'shimchalarini to`g`ri qo'llashni o`rgatishda "Matndagi o'quvchi o`z kun tartibi bo'yicha qilgan ish-harakatlarni siz ham har kuni bajarishingizni aytинг" degan topshiriqni bajarish uchun o'quvchi matnda III shaxsda qo'llangan fe'llarni I shaxs shakliga soladi. Ushbu fe'l shaklining amaliyotdagi ahamiyatini anglash natijasida o'quvchilarning ona-tili darslariga qiziqishi oshadi.

Yuqoridagi kabi topshiriqli nutqiy mashqlarni asosini mazmun ifodasi tashkil etadi. Avvalgi darsliklarda ananaviy bo`lgan "Gap tuzing" yoki "Matn tuzing" kabi topshiriqli mashqlarda esa ma`no ifodalash emas, shaklni qo'llash vazifasi qo'yiladi. Tabiiyki, bunday topshiriqni bajarishda ma`noviy vazifa yo`qligi sababli o'quvchida stimul bo`lmay, u bu ishni nima uchun bajarish kerakligini his etmaydi. Metodik qonun- qoidalarga ko`ra o'quvchidan bir amalni bajarishni talab qilishdan avval bu amalni bajarish yo`l-yo`riqlarini o`rgatish va buning uchun zarur bo`lgan bilimni berish lozim. Masalan, o'quvchiga matn tuzish vazifasi topshirilganda unga qanday qolipdagi qaysi shakl va mazmundagi matnni tuzishi haqida aniq ko`rsatma berilishi kerak. Bundan tashqari, avval matn tuzishni o`rgatish, ya`ni matn tarkibidagi jumlalarni qo'llashda mantiqiy izchillikka rioya qilish, matn qismlarini bir-biriga bog`lovchi vositalarni qo'llash hamda matn rejasini tuzishni o`rgatish zarur. Shundan keyinbgina o'quvchidan matnni tuzishni talab qilsa bo`ladi. Qolaversa, matn ham turlich (dialog, monolog, polilog) shaklda bo`ladi. Dialog yoki polilog shaklidagi matn nafaqat savol-javob, balki bir shaxs bildirgan fikrni ikkinchi shaxs tasdiqlashi, qisman yoki to`la



ma`qullashi, qo`sishimcha qilishi yoki e`tiroz bildirishini ifodalovchi jumlalardan iborat bo`lishi mumkin. Ana shu jumlalarning har biri turli darajalardagi ma`no ifodasiga (kuchli, o`rta kuchli yoki kuchsiz) ega bo`lishi mumkin. Masalan, e`tiroz bildirishda:

- Yo`q, bu mutlaqo noto`g`ri, bu fikrga qo`sila olmaymiz.
- Bu fikrga qo`silish qiyin.
- Bu haqida biz hali bir to`xtamga kelganimiz yo`q.
- Bu masalani biz atroflicha o`rganib chiqishimiz kerak, hozir aniq bir narsa deya olmaymiz.
- Fikringiz to`g`rib o`lishi mumkin, ammo bizda boshqacha taklif ham yo`q emas.

Maqsad kelajak uchun so`zamol, o`z sohasi yuzasidan turli bahs-munozarada faol ishtirok etadigan mutaxassislar tayyorlash ekan, mактабданоq o`quvchilarga ona tili darslarida yuqoridagi kabi jumlalarni o`rgatish zarur. Hozirgi chet eldagи ona tili darsliklarida Grammatik darsliklar bilan bir qatorda nutqiy mashqlar ham yetarli darajada beriladi. Amerikaning esa ko`p o`quv muassasalarida ona tili bo`yicha til darslari alohida, nutq o`stirish darslari alohida o`tkazilar ekan. Ishonamizki, " Kadrlar tayyorlash milliy dasturi " talablarni bajarish uchun yuqorida qayd etilganidek, yo`l tutish maqsadga muvofiq ekanligini tushungan holda dastur va darsliklarni takomillashtirish va qayta nashr etishda nitqoy mashqlarga katta e`tibor beriladi.

Lotin imlosiga asoslangan o`zbek alifbosiga o`tish munosabati bilan ona tili ta`limi maqsadi vazifalari va mazmunida o`zgarishlar yuz berdi. Mazkur masala bilan bog`liq barcha me`yoriy hujjatlarda ona tili darslarida o`quvchilarni foydali o`z faoliyatida kerakli bo`ladigan zaruriy bilimlar bilan qurollantirish, ularda og`zaki va yozma nutqit ko`nikma va malakalarni hosil qilish ko`zda tutilgan. Ilmiy metodik mashqlarda tilning boshqa sathlari bo`yicha ko`plab maqolalar chop etilyapti, ammo negadir fonetika ustida ishslashga kam e`tibor berilyapti.

Talaffuz masalasi boshqa tillarda yetarlicha o`rganilyapti. Jahon tajribasidan ma`lumki, ona tili darsliklarida o`quvchilarni talaffuzga o`rgatish uchun fonetik mashqlar yetarlicha kiritilgan. Ammo o`zbek tili ta`limida, hattoki ta`limning filologlar tayyorlovchi fakultetlari uchun chop etilgan darslik va qo`llanmalarda ham tovushlarning talqin holati aks etgan maxsus chizmalar yo`q. O`zbek tiliga xos bo`lgan ayrim tovushlarning to`g`ri talaffuzini o`rgatish uchun bunday mashqlar juda zarur. Muammoning bosh sababi umumta`lim maktablarda ona tili o`qitish masalasiga borib taqaladi. Ma`lumki, to`g`ri talaffuz – madaniyatlik belgisi hisoblanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki Maktabda ona tili o`qitishdan maqsad o`quvchilarda ezgu ma`naviyatni shakllantirishdan iboratligidir. Bas shunday ekan, adabiy ta"ldan komil shaxsni shakllantirish talab qilinadi. Adabiy ta"limning vazifalari sifatida: oddiy o`quvchidan kitobxon o`quvchi, anglaydigan o`quvchidan o`qiganlarini anglaydigan o`quvchi, anglaydigan o`quvchidan tahlillay oladigan o`quvchi, tahlil qila biladigan o`quvchidan muayyan asar haqidagi fikrini og`zaki va yozma tarzda qiyalmay ifoda eta oladigan o`quvchi tarbiyalashdir, deb belgilanishi



15-SON

O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA

ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI

20.01.2023



lozim. Ona tili o'qitishning mazmuni dastur, darslik, o'quv va metodik adabiyotlar, ko'rgazmali qurollar, yordamchi vositalar ham ta"lim mazmunini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo'ldashev.Q va boshqalar Adabiyot o`qitish metodikasi. – T.: 1994.
2. Mahfuza To"ychiyeva " Adabiyot darsliklaridagi savol topshiriqlar haqida" Til va adabiyot ta"limi, 2005-yil 3-son
3. To`xliyev B. Adabiyot o`qitish metodikasi – T.: Yangi asr avlod, 2007.